

“AGAT CREDIT” AJ MMTda mikroqarz/mikrokredit/kredit (“Kredit”) taqdim etish to‘g‘risida

OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

Avto-so‘ndirish — Qarz oluvchining To‘lovlar jadvaliga muvofiq to‘lovlarni yoki Mikroqarz/mikrokredit/kredit (keyingi o‘rinlarda “Kredit”) bo‘yicha muddati o‘tgan qarzдорlikni so‘ndirish uchun uning kartalari/hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini akseptsiz hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi farmoyishini bajarish bo‘yicha pullik xizmat.

MMT — “AGAT CREDIT” aksiyadorlik jamiyati shaklidagi Mikromoliya tashkiloti.

Mijozni verifikatsiya qilish — MMTda mavjud bo‘lgan va u tomonidan olingan Mijozning shaxsiy ma’lumotlarining dolzarbligi, to‘g‘riligi va to‘liqligini tekshirish.

Kredit taqdim etilgan sana — MMT tomonidan pul mablag‘larining Qarz oluvchining bank kartasiga o‘tkazib berilgan va/yoki MMT kassasidan naqd pul mablag‘lari tarzida berilgan sana.

So‘ndirish sanasi — Kreditni so‘ndirish jadvali bilan belgilanadigan kalendar sana bo‘lib, Mijoz undan kechiktirmay Kredit bo‘yicha qarzдорlikni so‘ndirish uchun to‘lovlarni amalga oshirishi shart.

Qarz oluvchi/Mijoz — O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi jismoniy shaxs (O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari/rezidentlari), shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi, o‘zini o‘zi band qilgan, daromadga ega bo‘lgan va mikroqarz/mikrokredit/kredit mahsuloti pasportining barcha shartlariga javob beradigan, mikroqarz/mikrokredit/kredit olish uchun MMTga yozma ariza taqdim etgan va Shartnoma tuzgan shaxs.

Identifikatsiya — Mijozni uning identifikatori orqali tanib olish, aniqlash yoki tenglashtirish tartib-taomili bo‘lib, u axborot tizimlarida ushbu subyektni bir ma’noda belgilab beradi.

Kreditning individual shartlari — Kredit muddati, miqdori, foiz stavkasini belgilaydigan, shuningdek, berilayotgan Kredit parametrlari sohasida tomonlarning munosabatlarini tartibga soladigan shartlardir.

Mazkur shartlar MMT tomonidan har bir Mijoz uchun individual tartibda hisoblab chiqiladi hamda Mijoz tomonidan ushbu Ommaviy oferta va Individual shartlar QR-kod yordamida o‘rganilib, tanishuv varaqasiga imzo qo‘yish yo‘li bilan akseptlangach, o‘z aksini topadi va tasdiqlanadi.

Mikroqarz/mikrokredit/kredit — oferta matnlarida keyingi o‘rinlarda “Kredit” so‘zi bilan yuritilib, MMT tomonidan Qarz oluvchiga uning bank kartasiga o‘tkazish va/yoki MMT kassasidan naqd pulda berish orqali ajratiladigan pul mablag‘larini anglatadi.

Kredit arizasi — Mijozga kredit berish ehtimolini baholash maqsadida u tomonidan MMT binosida imzolanadigan hamda mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlar asosida so‘ralayotgan kredit to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hujjatdir.

MMT sayti — “AGAT CREDIT” AJning rasmiy sayti — www.agatcredit.uz

Kredit ta’minoti — Qarz oluvchining ushbu Ommaviy oferta va Mikroqarz/mikrokredit berish to‘g‘risidagi shartnoma doirasida MMT oldidagi o‘z majburiyatlari, shu jumladan kredit bo‘yicha barcha qarzni so‘ndirish majburiyatlari bajarilishining ta’minoti hisoblanadigan garov/kafolat/kafillik/kreditni so‘ndirmaslik xatarini sug‘urtalash polisi va/yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda MMTning ichki me’yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turdagi ta’minotlar.

Shaxsga doir ma’lumotlar — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo‘lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron, qog‘oz va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot.

To‘lov majburiyatlari — Qarz oluvchining Shartnoma bo‘yicha qarzдорlikni Shartnomada ko‘rsatilgan miqdorda va muddatlarda so‘ndirish majburiyatlari.

Tomonlar — Mijoz / Qarz oluvchi va MMT.

2. ASOSIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Ommaviy ofertaga binoan MMT jismoniy shaxslarga — mijozlarga milliy valyutada mikroqarz/mikrokredit/kredit berish to'g'risidagi shartnomani (matnda keyingi o'rinlarda — Shartnoma) ushbu Ommaviy ofertaning umumiy shartlari va Kreditning individual shartlari asosida tuzishni taklif qiladi.

2.2. Mikroqarz/mikrokredit/kredit berish to'g'risidagi shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367, 369, 370-moddalariga muvofiq tuziladi va u Mijoz tomonidan ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilgan harakatlar amalga oshirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

Mazkur ommaviy ofertaning shartlari Qarz oluvchi tomonidan akseptlangandan keyin, Qarz oluvchi va MMT uchun hech qanday istisno va cheklovlarsiz majburiy hisoblanadi.

2.3. Ushbu ommaviy oferta shartlariga muvofiq Kredit olish istagida bo'lgan Mijozlar javob berishi kerak bo'lgan aniq talablar, Kredit summasining miqdori, muddatlari hamda boshqa shartlar kredit mahsuloti to'g'risidagi tegishli axborotni ommaga ochiq joyda (MMTning Internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida quyidagi manzil bo'yicha) joylashtirish orqali Mijozlar e'tiboriga havola etiladi: www.agatcredit.uz

2.4. Kredit berish shartlariga rozi bo'lgan va ma'lumotlarni uzatish hamda Kredit arizasini yuborish shartlari bo'yicha ofertani qabul qilgan Mijoz MMT binolarida arizani imzolash va IEH tizimidagi MyID xizmati orqali muvaffaqiyatli identifikatsiyadan o'tish yo'li bilan mazkur ommaviy ofertani akseptlaydi. Ushbu aksept MMT uchun Mijozning potentsial Qarz oluvchi sifatidagi Kredit arizasini dastlabki ko'rib chiqish uchun asos bo'ladi. MMT Mijozning arizasini ma'qullagan taqdirda, MMT Mijozga Kreditning individual shartlarini taqdim etadi. Mijoz tanishuv varaqasiga o'z imzosini qo'ygan holda QR-kodni skanerlash orqali Kreditning individual shartlarini qabul qilgan (akseptlagan) taqdirda, mikrosarz/mikrokredit/kredit berish to'g'risidagi shartnoma mazkur ommaviy ofertada va Kreditning individual shartlarida nazarda tutilgan shartlar asosida tuzilgan hisoblanadi.

Shu bilan birga, Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan Ommaviy oferta/Kreditning individual shartlari MMTning operatsion kuni tugagandan so'ng va/yoki MMTga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra akseptlansa, Shartnoma MMTning navbatdagi birinchi operatsion kunida va/yoki tashqi axborot tizimlaridan foydalanish imkoni paydo bo'lganda, shuningdek, MMTga bog'liq bo'lmagan boshqa sabablar bartaraf etilgandan so'ng tuzilgan deb hisoblanadi.

2.5. Kreditning individual shartlari Mijoz/Qarz oluvchi har safar Kredit olishidan oldin alohida belgilanadi. Mijoz/Qarz oluvchi istalgan vaqtda MMT Saytida joylashtirilgan Shartnoma shartlari bilan mobil qurilma yordamida tegishli QR-kod orqali tanishishga haqli. Qarz oluvchi Kreditning individual shartlarini SMS-xabarni tasdiqlash yoki MMT taklif qilgan boshqa usul orqali qabul qiladi va ularga rozilik bildiradi. Qarz oluvchi mazkur Ommaviy ofertaning shartlarini va Kreditning individual shartlarini akseptlagan taqdirda, mazkur Ommaviy oferta va Kreditning individual shartlarida nazarda tutilgan shartlar asosida mikroqarz/mikrokredit/kredit taqdim etish to'g'risidagi shartnoma tuzilgan hisoblanadi va u MMT hamda Mijoz/Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar amal qiladi.

2.6. Mijoz MMTning Mijozning to'lovga layoqatliligi va boshqa ma'lumotlarini baholashda foydalaniladigan skoring modeli tijorat siri ekanligiga va maxfiy hisoblanishiga, shuningdek, MMT quyidagi hollarda sabablarini ko'rsatmasdan unga Kredit berishni rad etish huquqiga ega ekanligiga rozilik bildiradi:

- Mijoz va u tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qilishning barcha tegishli bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'ta olmaganda va/yoki;

- muammoli kreditlar, ular bo'yicha joriy muddati o'tgan qarzlar mavjud bo'lganda;

- kredit olishdan maqsad jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va/yoki terrorizmni moliyalashtirish va/yoki ommaviy qirg'in qurollari tarqatilishini moliyalashtirish ekanligi to'g'risida shubhalar mavjud bo'lganda;

– Kredit arizasi shartlari/ariza beruvchi MMTning kredit mahsuloti, kredit siyosati/risk strategiyasi talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda;

– O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va MMTning ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Mijozni ushbu Ommaviy oferta va Tariflar (shu jumladan, MMT tomonidan vaqti-vaqti bilan kiritiladigan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar) bilan tanishtirish maqsadida MMT mazkur hujjatlarni o'z veb-saytida e'lon qiladi. Qo'shimcha ravishda MMT Mijozni boshqa usullar bilan ham xabardor qilishi mumkin, bu Mijozga ma'lumot olish va uning MMTdan kelib chiqqanligini aniqlash imkonini beradi. Ko'rsatilgan ma'lumotning MMT saytida birinchi marta joylashtirilgan sanasi uning e'lon qilingan sanasi hisoblanadi.

3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. MMT Mijozga Kredit arizasida ko'rsatilgan summada, biroq Mijoz uchun MMT tomonidan hisoblangan moliyalashtirishning mumkin bo'lgan summasidan oshmaydigan miqdorda Kredit taqdim etadi, Mijoz esa olingan Kredit summasini MMTga qaytarish hamda undan foydalanganlik uchun foizlarni ushbu Ommaviy oferta va Kreditning individual shartlariga muvofiq to'lash majburiyatini oladi.

3.2. Qaytarish tartibi – Mikroqarz/mikrokredit/kredit berish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan to'lovlar jadvaliga muvofiq har oyda.

4. SSUDA HISOBVARAG'INI OCHISH

4.1. Ushbu Ommaviy oferta va Shartnomaga muvofiq, MMT Mijozga milliy valyuta – o'zbek so'mida ichki kredit (ssuda) hisobvarag'i (hisobvaraqlari) ochadi.

5. KREDIT BERISH VA QAYTARISH TARTIBI

5.1. Kredit Mijozga ushbu Ommaviy oferta bilan belgilangan shartlar va tartibda, Kreditning individual shartlarida ko'rsatilgan va Mijoz tomonidan akseptlangan miqdordagi pul mablag'larini plastik kartaga o'tkazib berish yoki MMT kassalaridan naqd pulda olish yo'li bilan taqdim etiladi.

5.2. Kredit olish uchun Mijoz MMT xonalarida Kredit arizasini imzolashi va identifikatsiyadan muvaffaqiyatli o'tishi kerak.

5.3. Kredit arizasi ko'rib chiqilgach, MMT ushbu Ommaviy oferta shartlari asosida MMT tomonidan ma'qullangan moliyalashtirish summasi to'g'risida Kreditning individual shartlarini shakllantirish yo'li bilan Mijozni xabardor qiladi yoxud muvaffaqiyatsiz verifikatsiya, Mijozning to'lovga layoqatliligi yetarli emasligi yoki boshqa sabablarga ko'ra kredit berishning imkoni yo'qligi haqida SMS orqali ma'lum qiladi.

5.4. Ushbu Ommaviy ofertani va Kreditning individual shartlarini akseptlash orqali Mijoz o'z roziligini bildiradi va MMTga Kreditni ko'rib chiqish, berish va qaytarish bilan bog'liq maqsadlarda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq rasmiy manbalardan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini zarur hajmda so'rab olish, qabul qilish, qayta ishlash va uzatish vakolatini beradi.

5.5. MMT tomonidan Mijoz uchun ma'qullangan moliyalashtirish summasi MMTda mavjud bo'lgan Mijoz haqidagi ma'lumotlar asosida uning to'lovga qobilliligini baholash orqali aniqlanadi. Mijozning to'lovga qobilliligini baholash metodikasi MMTning tijorat siri hisoblanadi va maxfiy sanaladi.

5.6. Mijoz ushbu Ommaviy oferta shartlariga muvofiq, kreditni qaytarish oyining sanasini ko'rsatgan holda, kredit mahsuloti taklif etayotgan mumkin bo'lgan moliyalashtirish summasi/muddatidan oshmaydigan miqdor/muddatga Kredit arizasini topshirishga yoki kredit olishdan voz kechishga haqli.

5.7. Mijozning Kredit arizasi, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, quyidagilarni o'z ichiga oladi: kredit summasi, muddati, kreditni qaytarish oyining sanasi, ma'qullangan summa o'tkazilishi kerak bo'lgan hisobvaraqlar va/yoki summa Qarz oluvchiga MMT kassasidan naqd pulda berilishi ko'rsatiladi.

5.8. Kredit arizasi taqdim etilishi va Kreditning yakka tartibdagi shartlarining akseptlanishi Mijozning Kreditning yakka tartibdagi shartlarida ko'rsatilgan shartlar asosida kredit olishga roziligini tasdiqlaydi. Shundan so'ng Kreditning yakka tartibdagi shartlari va Ommaviy oferta MMT hamda Mijoz o'rtasida kelishilgan deb hisoblanadi.

5.9. MMTning kredit taqdim etish bo'yicha majburiyati kredit summasi Mijoz tomonidan Kredit arizasida ko'rsatilgan hisobvaraqlarga o'tkazilgan sanadan yoki Mijozga MMT kassasidan pul mablag'lari berilgan sanadan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

5.10. Taqdim etilgan summa, muddat, muddatli va muddati o'tgan qarzlar bo'yicha foiz stavkasi hamda kreditni qaytarish jadvali Kreditning yakka tartibdagi shartlari bilan belgilanadi.

5.11. Kredit bo'yicha foizlar asosiy qarzning qoldig'iga har kuni hisoblanadi. Foizlarni hisoblashda bir yilda 365 kun hisobidan kelib chiqiladigan usul qo'llaniladi.

5.12. Kredit bo'yicha foiz stavkasi Kreditning yakka tartibdagi shartlarida muddatli, shuningdek, muddati o'tgan qarzlar uchun ham ko'rsatilgan.

5.13. Kredit bo'yicha asosiy qarzni to'lash (qaytarish) Mijoz tomonidan Kreditning yakka tartibdagi shartlariga muvofiq kredit valyutasida amalga oshiriladi.

5.14. Mijoz olingan kreditni Kredit to'lovlari jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda qaytarish majburiyatini oladi.

5.15. Agar to'lov sanasi bankning ish kuni bo'lmagan kunga to'g'ri kelsa, undan keyingi eng yaqin bank ish kuni to'lov sanasi deb hisoblanadi.

5.16. Mijozning kreditini so'ndirish uchun kelib tushgan mablag'lar hisoblangan foizlar, jumladan, oshirilgan foizlar bo'yicha qarzдорlikni so'ndirishga, so'ngra Kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirishga yo'naltiriladi. Jadval bo'yicha belgilangan to'lovni amalga oshirish uchun kelib tushgan pul mablag'lari yetarli bo'lmagan yoki mavjud bo'lmagan taqdirda, to'lanmagan summalar muddati o'tgan foizlar va muddati o'tgan ssudalar hisobvaraqlariga o'tkaziladi. Muddati o'tgan ssudalar hisobvaraqlaridagi summalariga har bir kechiktirilgan kun uchun Kreditning yakka tartibdagi shartlarida ko'rsatilgan miqdorda oshirilgan foiz hisoblanadi.

Mijoz Kreditni qaytarishning belgilangan jadvalini buzgan taqdirda, MMT foydasiga kelib tushgan to'lov va/yoki Qarz oluvchining istalgan bankdagi har qanday hisobvaraqlarida mavjud bo'lgan pul mablag'lari ushbu Ommaviy oferta bo'yicha MMT oldidagi majburiyatlarni qoplash uchun quyidagi tartibda hisobdan chiqariladi/undiriladi:

- asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- joriy davr uchun hisoblangan foizlar va asosiy qarz bo'yicha joriy davr uchun qarzдорlik;
- neustoyka (jarima, penya);
- MMTning qarzдорlikni qoplash bilan bog'liq boshqa xarajatlari.

5.17. Shartnoma bo'yicha qarzдорlikning muddatidan oldin qisman qoplanishi Qarz oluvchining Kreditning individual shartlarida belgilangan to'lovlari soni, miqdorini aniqlash tartibi (qoplash jadvalini hisoblash usuli) va davriyligi (muddatlari) o'zgarishiga olib kelmaydi.

5.18. Asosiy qarz bo'yicha qarzдорlik muddatidan oldin qisman qoplangan taqdirda, asosiy qarz qoldig'i summasi muddatidan oldin qisman qoplangan summani chegirgan holda kamaytiriladi, bunda oylik to'lov asosiy qarz bo'yicha qisman qoplangan summaga mutanosib ravishda kamayadi, Kredit berilgan muddat esa o'zgarmaydi.

5.19. Kreditning individual shartlarida belgilangan navbatdagi to'lov sanasidan boshqa kunda kreditni muddatidan oldin qisman qoplash Qarz oluvchini belgilangan kunda kredit bo'yicha to'lovni amalga oshirishdan ozod qilmaydi.

5.20. Bunda, Qarz oluvchi kreditni qisman muddatidan oldin so'ndirgan taqdirda, qo'shimcha kelishuvlar tuzish va yangi so'ndirish jadvallarini/muddatli majburiyatlarni rasmiylashtirish talab etilmaydi. Joriy so'ndirish jadvalini MMT veb-saytidan tegishli QR-kod orqali mobil qurilma yordamida yoki MMT ofislarida olish mumkin.

5.21. Asosiy qarz Shartnoma bo'yicha berilgan kredit hisobi yuritiladigan ssuda hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish/kiritish yo'li bilan so'ndiriladi. Mablag'larning ushbu hisobvaraqlarga kelib tushgan kuni asosiy qarzni so'ndirish sanasi hisoblanadi.

5.22. Asosiy qarz va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni so'ndirish Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasining boshqa banklaridan pul mablag'larini o'tkazish, shuningdek, mobil ilovalar, to'lov terminallari (infokiosklar), to'lov tizimlari orqali to'lash yoxud MMT kassalariga naqd pul mablag'larini kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi. Kreditni so'ndirish jadvali buzilgan taqdirda esa, MMT tomonidan Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan, jumladan, Avtoto'lov xizmati hisobidan tegishli summa akseptsiz tartibda yechib olinadi.

5.23. Kredit bo'yicha to'lovlarni so'ndirish amaliyotlari dam olish/bank uchun ish kuni hisoblanmaydigan kunlarda bajarilsa, bunday amaliyot sanasi sifatida keyingi ish kuni sanasi qabul qilinadi.

5.24. Ushbu Ommaviy oferta bo'yicha kredit va boshqa to'lovlar Mijoz yoki uning Vakili tomonidan bankning istalgan filialida kreditni so'ndirish uchun o'zining talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvarag'ini/bank kartasini to'ldirish, O'zbekiston Respublikasining boshqa banklaridan pul mablag'larini o'tkazish, shuningdek, mobil ilovalar, to'lov terminallari (infokiosklar), to'lov tizimlari orqali to'lash yoxud MMT kassalariga naqd pul mablag'larini kiritish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

5.25. To'lov muddatlari buzilgan taqdirda, MMT kredit bo'yicha to'lovlarni Mijozning har qanday hisobvaraqlaridan so'zsiz tartibda hisobdan chiqarishiga Mijoz o'z roziligini beradi.

6. KREDITNING QAYTARILISHINI TA'MINLASH

6.1. Kredit bo'yicha ta'minot va uning shartlari mikroqarz/mikrokredit/kredit taqdim etish to'g'risidagi Shartnomada belgilanadi.

6.2. Agar Qarz oluvchi ushbu Shartnomada belgilangan sanada mazkur Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan Kredit bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarni to'lay olmaydigan vaziyat yuzaga kelsa, MMT ushbu Shartnoma asosida berilgan Mikroqarz/Mikrokredit/kredit bo'yicha ta'minotga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq undiruvni qaratishga so'zsiz haqlidir.

6.3. Ushbu Shartnoma bo'yicha qabul qilingan garov ta'minotiga undiruv qaratilganda, MMT birinchi navbatda undiriladigan predmetni o'z xohishiga ko'ra bir tomonlama tartibda tanlash huquqini o'zida saqlab qoladi. Undiruv obyektlaridan biriga undiruvning qaratilishi MMTning boshqa undiruv obyektiga (obyektlariga) undiruvni qaratish huquqini cheklamaydi.

6.4. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli mol-mulki bilan javobgar bo'ladi.

7. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH

7.1. Shartnomani tuzish va kredit arizasini imzolash orqali Mijoz MMTga o'zining shaxsga doir ma'lumotlariga qog'oz va/yoki elektron tashuvchilarda ishlov berishga, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida belgilangan tartibda ularni yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish (yangilash), foydalanish, tarqatish (shu jumladan, uchinchi shaxslarga ishlov berishni topshirishda uzatish va ruxsat berish), shaxssizlantirish, bloklash va yo'q qilishga rozilik beradi.

7.2. Maxsus shaxsiy ma'lumotlarga (oilaviy ahvoli, farzandlari soni va boshqalar) ishlov berish faqat Mijozning alohida yozma roziligi asosida amalga oshiriladi.

7.3. Mijozning yuqorida ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlariga quyidagi maqsadlarda ishlov berish: MMT tomonidan Mijoz bilan Shartnoma tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish, uni tuzish masalasi bo'yicha ijobiy yoki salbiy qaror MMT tomonidan, shu jumladan Mijozning shaxsiy ma'lumotlariga faqat avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish orqali qabul qilinishi mumkin; Mijoz tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish; Shartnomani bajarish va bekor qilish; Shartnoma bo'yicha qarzni talab qilish (to'lash, undirish); Mijozning to'lovga layoqatligini baholash; uning ish joyini, haqiqiy yashash manzilini, telefonini va Mijozdan olingan boshqa ma'lumotlarni qidirish hamda tekshirish; Mijozning MMT mahsulotlariga bo'lgan qiziqishini aniqlash; Mijozni marketing segmentlariga kiritish; Mijozga MMTning boshqa xizmatlari va mahsulotlarini targ'ib qilish hamda ko'rsatish (taqdim etish) (shu jumladan MMT

tomonidan ko'rsatiladigan boshqa xizmatlarni taqdim etish bilan bog'liq boshqa shartnomalarni tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish).

7.4. Shartnomani tuzish bilan Mijoz MMTdan maxsus shartlarda bank mahsulotlariga doir shaxsiy takliflarni olish maqsadida istalgan vaqtda kredit tarixi byurolaridan o'zining kredit tarixi to'g'risidagi ma'lumotlarni so'ratishni MMTga topshiradi.

7.5. Ushbu bilan Qarz oluvchi MMTga quyidagi harakatlarni amalga oshirish uchun chaqirib olinmaydigan, so'zsiz huquq va rozilik beradi:

a) MMT tomonidan "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosiga va/yoki Kredit axborotining davlat reyestriga Shartnoma shartlariga oid ma'lumotlarni (Kredit byurolariga va Garov reyestriga) taqdim etish;

b) MMT faqat Qarz oluvchining o'zi taqdim etgan aloqa ma'lumotlari orqali, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi masalalari yuzasidan unga telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish, xatlar, elektron va SMS-xabarlar yuborish huquqiga ega.

c) Qarz oluvchining kredit bo'yicha majburiyatlarini bajarish masalasida Qarz oluvchi, uning turmush o'rtog'i, shuningdek, uning qarindoshlari va ish beruvchilari bilan muzokaralar (uchrashuvlar) o'tkazish;

d) ish beruvchilardan Qarz oluvchining daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rab olish, shuningdek, Qarz oluvchiga tegishli pul mablag'larini (ish haqi, nafaqa va boshqalar) kredit qarzini so'ndirishga yo'naltirish talabi bilan ish beruvchilarga murojaat qilish;

e) MMT, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarini faqat ushbu Shartnomani tuzish va bajarish uchun zarur bo'lgan hajmda to'plash, ularga ishlov berish hamda uchinchi shaxslarga o'tkazish huquqiga ega. Bunda har bir o'tkazishdan so'ng uch ish kuni ichida Qarz oluvchi bu haqda yozma yoki elektron shaklda majburiy xabardor qilinishi lozim. Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarini umumfoydalanishdagi manbalarda tarqatishga yo'l qo'yilmaydi.

f) O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan hollarda, shu jumladan qarzni undirish bo'yicha qonunchilik bilan taqiqlanmagan har qanday choralarni ko'rish maqsadida boshqa banklar va/yoki tashkilotlarda Mijozning roziligisiz uning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va ularga ishlov berish.

g) Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari MMT tomonidan faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kriptografik himoya vositalaridan foydalangan holda, himoyalangan aloqa kanallari orqali uzatiladi. MMT shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash uchun javobgardir.

h) MMT Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan harakatlarni, jumladan, ularni to'plash, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish (yangilash), foydalanish, uzatish (agar bu ushbu Shartnomani bajarish uchun zarur bo'lsa, uchinchi shaxslarga kirish imkoniyatini taqdim etish), shaxssizlantirish, bloklash va yo'q qilishni amalga oshirishga haqlidir. Bunda, agar qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, MMT Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari uchinchi shaxsga har bir uzatilganligi to'g'risida uni uch ish kuni ichida xabardor qiladi. Barcha amallar xavfsizlik va maxfiylik talablariga rioya etilgan holda bajariladi.

i) Qarz oluvchining majburiyatini bajarganligi sababli Shartnoma bo'yicha o'z huquqlarini (talablarini) yangi kreditorga o'tkazishga, bunda ushbu shaxsga Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlari va Shartnomada mavjud bo'lgan axborot taqdim etiladi;

j) Qarz oluvchi hisobidan Avtoto'lov xizmatini ulashga;

k) mobil telefon raqamini uyali aloqa Operatoriga uzatishga va ularga ishlov berishga.

Bunda MMT tomonidan yuqorida ko'rsatilgan harakatlarning amalga oshirilishi bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi.

8. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

8.1. kreditni Shartnomada belgilangan muddatlardan oldin istalgan vaqtda jarima

sanksiyalari undirilmagan holda to'lash.

8.2. Shartnoma tuzilgandan so'ng, pul mablag'larini olgunga qadar bo'lgan davrda kredit olishdan bepul voz kechish.

8.3. Shartnomaning amal qilish davrida bir oyda bir marta bir ish kuni ichida quyidagi ma'lumotlarni bepul yozma shaklda olish:

- kredit bo'yicha to'langan pul mablag'lari summasi to'g'risida;
- asosiy qarz bo'yicha qoldiq haqida;
- navbatdagi to'lovlarning miqdori, tarkibi va muddatlari (to'lovlar jadvali) haqida;
- muddati o'tgan qarzдорlikning miqdori va tarkibi to'g'risida;
- kelib tushayotgan pul mablag'larining kredit bo'yicha qarzдорlikni so'ndirishga yo'naltirilishi to'g'risida.

8.4. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq boshqa huquqlarga ega.

Mijozning majburiyatlari:

8.5. Kredit bo'yicha qarzдорlikni so'ndirish va shartnomada nazarda tutilgan barcha to'lovlarni Shartnomaga muvofiq to'liq hajmda amalga oshirish, shu jumladan, amalga oshirilgan operatsiyalar yuzasidan e'tirozlar bildirilgan taqdirda, bunday e'tirozlarni qanoatlantirish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilinguniga qadar to'lovlarni amalga oshirish.

8.6. To'lov sanasidan kechiktirmay, kreditni so'ndirish uchun ochilgan hisobvaraqa kredit bo'yicha to'lovlar summasini ta'minlash.

8.7. MMT Saytiga biriktirilgan mobil telefon raqamini va/yoki Abonent qurilmasini uchinchi shaxslarga foydalanish uchun bermaslik. Mijoz ushbu bandni buzgan taqdirda, barcha xatti-harakatlar va operatsiyalar uchun javobgarlik Mijozning zimmasida bo'ladi.

8.8. Zarur hollarda, MMTning so'roviga ko'ra, MMTning tegishli so'rovi olingan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kuni ichida Mijozning moliyaviy va mulkiy ahvolini tasdiqlovchi har qanday hujjatlarni MMTga taqdim etish.

8.9. F.I.Sh., yashash joyi, ish joyi, shaxsga doir ma'lumotlar, shaxsiy, biografik ma'lumotlar yoki boshqa axborot o'zgarigan taqdirda, bunday o'zgarishlar yuz bergan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida MMTga bu haqda xabar berish.

8.10. Mijozning moliyaviy ahvoli yomonlashishiga hamda Mijoz tomonidan Shartnoma bo'yicha MMT oldidagi majburiyatlarning bajarilmasligi va/yoki lozim darajada bajarilmasligi xavfini yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan hech qanday majburiyat va choralarni o'z zimmasiga olmaslik.

8.11. Mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida ish beruvchiga ariza bergan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay bu haqda MMTni xabardor qilish.

8.12. MMTga, uning xodimlariga, huquqiy vorislariga va jalb qilingan autsorsing kompaniyalariga Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni, shuningdek, Kredit arizasida va Mijoz kredit olish uchun taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni har qanday axborot manbalaridan foydalangan holda, jumladan, uning yashash joyiga, ish joyiga va h.k. joylarga borish orqali tekshirish va qayta tekshirish imkoniyatini taqdim etish;

8.13. Asosiy qarz va/yoki Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni to'lash muddati kelganda, MMTga Mijozning istalgan banklardagi har qanday hisobvarag'idan pul mablag'larini akseptsiz, so'zsiz va qaytarib olinmaydigan tarzda shubhasiz hisobdan chiqarish huquqini berish.

8.14. MMT talabiga binoan, Shartnoma doirasida beriladigan kredit (asosiy qarz va boshqa to'lovlar) bo'yicha qarzдорlikni majburiy va/yoki muddatidan oldin undirish choralarni ko'rish munosabati bilan MMT qilgan barcha xarajatlar va ko'rgan zararlarning o'rnini qoplash;

8.15. Mijoz MMTning rozilgisiz kredit bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini to'liq yoki qisman boshqa shaxsga o'tkazishga haqli emas;

8.16. Qarz oluvchi kredit rasmiylashtirilgan shaxsini tasdiqlovchi hujjatning amal qilish muddati tugagunga qadar uni almashtirishi va MMT ofislarida yangidan identifikatsiyadan o'tishi shart.

8.17. MMT kredit bo'yicha o'z huquqlarini (talablarini) yangi kreditorga o'tkazgan taqdirda, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni huquq o'tish paytida mavjud bo'lgan hajmda va shartlarda bajarishi lozim;

8.18. Agar MMT tomonidan qarzдорlik kechilsa, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini (JSHODS) to'lash majburiyatini mustaqil ravishda bajarishni o'z zimmasiga oladi.

MMT quyidagi huquqlarga ega:

8.19. Kreditlash jarayonida MMT Mijozning moliyaviy holatini tekshirish huquqiga ega. Bunday tekshiruvlarni o'tkazish davriyligi quyidagi hollarda MMT tomonidan belgilanadi:

1) Mijoz tomonidan Shartnoma bo'yicha zimmasiga olingan majburiyatlar buzilganda va/yoki bajarilmaganda va/yoki lozim darajada bajarilmaganda;

2) Mijozning moliyaviy ahvoli yomonlashganda va/yoki Mijozga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilganda, uning mol-mulki xatlanganda va/yoki Mijozning pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulki bilan bog'liq operatsiyalar muzlatilganda va/yoki to'xtatib turilganda;

3) MMT tomonidan Mijoz noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etgani fakti aniqlanganda;

4) Mijoz moliyaviy nazoratdan bo'yin tovlaganda, jumladan, Mijozni tegishli tarzda tekshirish imkoniyati mavjud bo'lmaganda va/yoki Mijoz tomonidan tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari talablariga muvofiq shubhali operatsiyalar amalga oshirilganda;

5) ushbu Ommaviy oferta va Kreditning individual shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlar o'z vaqtida so'ndirilmaganda;

6) kreditning qaytarilmaslik xavfini oshiruvchi har qanday omillar yuzaga kelganda;

7) kredit taqdim etilgan Kartadan ruxsatsiz foydalanilganlikda gumon paydo bo'lganda;

8) ishonchsiz yoki yolg'on ma'lumotlar (hujjatlar) taqdim etilganda yoxud MMT tomonidan, jumladan, kreditni va Qarz oluvchining moliyaviy holatini monitoring qilish uchun so'ralgan ma'lumotlarni taqdim etish rad etilganda;

9) MMT O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan iqtisodiy me'yorlarga rioya qilmaganda.

8.20. 8.5-bandda ko'rsatilgan majburiyatlar buzilganda, MMT quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

- Qarz oluvchini qonunchilikda belgilangan muddatlarda xabardor qilgan holda, kredit bo'yicha qarzдорlikni muddatidan oldin undiruvga taqdim etish;

- yozma xabarnoma yuborilgan sana deb uning Mijozga topshirilgan yoki pochta orqali jo'natilgan sanasi hisoblanadi;

- undiruvni muddatidan oldin kredit ta'minotiga qaratish.

- o'zining yagona mutlaq ixtiyoriga ko'ra Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni undirish va majburiy ijro ettirish yuzasidan sud jarayonlarini boshlash;

- Qarz oluvchining har qanday bankda ochilgan istalgan hisobvarag'idan mablag'larni akseptsiz va so'zsiz tartibda hisobdan chiqarib, ularni Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni qoplashga yo'naltirish.

8.21. Shartnoma bo'yicha qarzni to'lashning rejadagi sanasiga qadar 8 (sakkiz) kalendar kun ichida Mijozni kredit bo'yicha navbatdagi to'lov muddati yaqinlashayotgani haqida ogohlantirish maqsadida, Mijoz tomonidan Kredit arizasida ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga elektron pochta orqali yoxud SMS-xabarnoma/PUSH-bildirishnomalar yuborish yo'li bilan to'lovlar jadvaliga muvofiq kutilayotgan to'lov va uni amalga oshirish tartibi haqida xabardor qilish.

8.22. MMT o'z xohishiga ko'ra mazkur Ommaviy ofertada ko'rsatilgan har qanday huquq/talabni qo'llashi yoki qo'llamasligi mumkin. Bu huquq/talablarni qo'llamaslik yoki qisman qo'llash ulardan voz kechishni anglatmaydi va ular Shartnomaning amal qilish muddati davomida istalgan vaqtda qo'llanilishi mumkin.

8.23. MMT Mijoz bilan bog'lanishga va unga muddati o'tgan qarzдорlik mavjudligi hamda

Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi to'g'risidagi ogohlantirish va bildirishnomalarni yuborishga haqlidir. Ogohlantirish va bildirishnomalar kredit arizasida va Mijoz tomonidan kredit olish uchun MMTga taqdim etilgan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan aloqa vositalari va manzillar (telefonlar) orqali, shuningdek, Mijoz hamda uchinchi shaxslardan olingan aloqa ma'lumotlari bo'yicha yuboriladi. Bularga telefon aloqasi, telefon raqamiga SMS-xabarnoma yuborish, doimiy ro'yxatdan o'tgan/haqiqiy yashash manzili bo'yicha pochta xizmati, elektron pochta yoki boshqa har qanday aloqa vositalari, shuningdek, ko'rsatilgan doimiy ro'yxatdan o'tgan/haqiqiy yashash/ish joyi manziliga tashrif buyurish kiradi.

8.24. MMT kredit bo'yicha to'lanmagan mablag'larni qaytarishni talab qilishga va boshqa qo'shimcha talablarni qo'yishga haqlidir.

8.25. MMT o'z talablarini qondirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, bank kartalari hamda boshqa hisobvaraqlardan) Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq, uning akseptisiz (rozilgisiz), memorial order yoki to'lov talabnomasi asosida hisobdan chiqarishga haqlidir.

8.26. Qarz oluvchi Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan, bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, o'z huquqlarini (talablarini) Shartnoma bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 313, 315, 318-moddalariga muvofiq, Qarz oluvchining majburiyatini bajarganligi natijasida, uning rozilgisiz boshqa/uchinchi shaxsga (ushbu majburiyat bo'yicha qarzidor bo'lmagan) o'tkazishga.

Bunda MMT Shartnoma bo'yicha ta'minotni Qarz oluvchi uchinchi shaxs oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar ushlab turish yoki ushbu huquqlarni o'z xohishiga ko'ra uchinchi shaxsga (keyingi o'rinlarda – yangi kreditor) o'tkazish huquqiga ega.

8.27. O'z xohishiga ko'ra kredit bo'yicha o'z huquqlarini (talablarini) Qarz oluvchining roziligini olmasdan, huquqdan voz kechish tartibida yangi kreditorga o'tkazishga. Bunda Qarz oluvchi mazkur Shartnomani tuzish bilan MMTning kredit bo'yicha talab qilish huquqlarini yangi kreditorga o'tkazishga o'z roziligini bildiradi.

MMT quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

8.28. Mijozga Ommaviy oferta va Kreditning individual shartlarida kelishilgan summa doirasida va muddatlarda kreditdan foydalanish imkoniyatini taqdim etish;

8.29. Kredit bo'yicha qarzidorlikni undirish maqsadida, muddati o'tgan qarzidorlik yuzaga kelgan kundan e'tiboran 8 (sakkiz) kun ichida, Shartnomada Mijoz bilan kelishilgan har qanday aloqa vositalaridan foydalangan holda, Mijozni qarzidorlikni to'lash zarurligi va kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari to'g'risida belgilangan shaklda xabardor qilish. Xabarnomani shaxsan topshirish va bu haqda telefon orqali og'zaki eslatib o'tish mahalliy vaqt bilan soat 20:00 dan 08:00 gacha amalga oshirilmaydi.

8.30. Mijozning qarz yuki yanada oshishining oldini olish maqsadida, Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzidorlik yuzaga kelgan kundan e'tiboran 8 (sakkiz) kalendar kun ichida, Mijoz tomonidan Kredit arizasida ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga elektron pochta orqali yoki SMS-xabarnoma/PUSH-bildirishnoma yuborish yo'li bilan muddati o'tgan qarzidorlik vujudga kelganligi haqida to'lovlar jadvali va uni so'ndirish tartibini ilova qilgan holda xabardor qilish.

8.31. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgan taqdirda, Mijozning tegishli so'rovi MMTga kelib tushgan kundan boshlab bir ish kuni mobaynida Mijozning xohishiga ko'ra, uning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini to'liq bajarganligini tasdiqlovchi hujjatni yozma shaklda taqdim etish.

9. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

9.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Shartnoma shartlariga va amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.2. Agar majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarilmasligi yengib bo'lmaz kuchlar, ya'ni muayyan sharoitlarda favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan holatlar oqibati bo'lsa,

Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi. Tomonlar yengib bo'lmas kuchlar holatlarining mavjudligini vakolatli organlar hujjatlari bilan tasdiqlashi lozim. Bunday holatlarga, jumladan, harbiy harakatlar, ommaviy tartibsizliklar, tabiiy ofatlar, harbiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi, elektr energiyasining uzilishi, ish tashlashlar, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlari, shuningdek, mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarishni imkonsiz qiladigan qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning qabul qilinishi kiradi.

9.3. Mijoz MMT oldida kreditning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi, shuningdek, majburiyatlarning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi tufayli yuzaga kelgan qarzni undirish bo'yicha sud xarajatlarining qoplanishi uchun o'zining butun mol-mulki bilan javobgar bo'ladi.

9.4. MMT Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

9.5. MMT texnik nosozliklar (elektr ta'minoti va aloqa tarmoqlarining uzilishi/shikastlanishi, To'lov tizimlari faoliyatidagi texnik uzilishlar) yuzaga kelganda, shuningdek, Mijoz tomonidan hisobvaraqqa pul o'tkazish uchun rekvizitlar noto'g'ri yoki to'liq ko'rsatilmagan hollarda ushbu Ommaviy ofertaning shartlarini bajarmaganligi yoki o'z vaqtida bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

9.6. MMT yiliga qarz miqdorining yarmidan oshmaydigan summadagi foizlar, penyalari va neustoykalarni hisoblash hamda undirish, shuningdek, Qarz oluvchining qarzini qaytarish maqsadida MMT tomonidan qilingan barcha xarajatlar va ko'rilgan zararlarning Qarz oluvchi tomonidan qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

9.7. Neustoyka to'lanishi Tomonlarni o'z zimmlariga yuklangan majburiyatlarni bajarishdan yoki yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

9.8. MMT Mijozning xatolari yoki kreditni so'ndirish bo'yicha biror-bir operatsiyani takroran amalga oshirishi uchun javobgar bo'lmaydi.

9.9. MMT Mijozning mobil qurilmasini yo'qotishi yoki vakolatsiz shaxslarga berishi oqibatida yuzaga kelgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

10. NIZOLARNI HAL ETISH VA MUHOJATLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

10.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladi.

10.2. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va da'volar, shu jumladan uning tuzilishi, o'zgartirilishi, ijro etilishi, buzilishi, bekor qilinishi, tugatilishi va haqiqiy emasligi bilan bog'liq masalalar, Tomonlar tomonidan ushbu Shartnomaning 10.3-bandida ko'rsatilgan tartibda da'vo yuborish yo'li bilan hal etiladi.

10.3. Da'vo yuborilgan Tomon xabarnomani (da'voni) olgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida unga javob berishi shart.

10.4. Ushbu Shartnomadan yoki u munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar yoki da'volar, shu jumladan uning tuzilishi, o'zgartirilishi, ijro etilishi, buzilishi, bekor qilinishi, amal qilishining tugatilishi, haqiqiy emas deb topilishi yoki ushbu Shartnoma bo'yicha ta'minotning (to'liq yoki qisman) qaytarilishi bilan bog'liq masalalar, Tomonlar tomonidan o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

10.5. Nizolarni muzokaralar yuritish yoki da'vo/shikoyat/arizalar almashish yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, da'vosi/shikoyati/arizasi rad etilgan (yoki qisman rad etilgan) yoxud belgilangan muddatda da'vo/shikoyat/arizaga javob olmagan Tomon o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilarga murojaat qilishga haqli:

- "DS Legal Centre" MChJ huzuridagi doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudiga, bunda nizo hakamlik sudi Reglamentiga muvofiq ushbu hakamlik sudi Raisi tomonidan ko'rib chiqiladi; hakamlik sudining qarori qat'iy bo'lib, qayta ko'rib chiqilmaydi;

- yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, da'vo ishini yuritish yoki sud buyrug'i tartibida fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudiga yoxud fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudiga;
- yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda notariusning ijro yozuvini olish yo'li bilan.

Bunda Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hollarda va tartibda MMTning ijro yozuvini amalga oshirish uchun notariusga so'zsiz tartibda murojaat qilish huquqini tan oladi va tasdiqlaydi.

11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

11.1. Shartnoma Mijoz Kreditning individual shartlarini akseptlagan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

11.2. Shartnoma kredit bo'yicha kreditlash davrida amal qiladi va Mijoz uning bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarganidan so'ng tugatiladi.

12. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Mazkur Ommaviy ofertada ko'zda tutilmagan shartlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

12.2. Mijoz MMT tomonidan Shartnoma shartlarini o'z foydasiga, jumladan foiz stavkasini o'zgartirish, kredit muddatini uzaytirish (prolongatsiya qilish) yoki kredit ta'tillarini taqdim etish (kredit ta'tillari yiliga faqat bir marta beriladi) bo'yicha qayta ko'rib chiqilishiga rozilik bildiradi. MMT ushbu o'zgartirishlar to'g'risida Qarz oluvchini SMS-xabarnoma yoki elektron pochta orqali oldindan xabardor qiladi. Qarz oluvchi taklif etilgan o'zgartirishlardan 3 (uch) bank kuni ichida voz kechishga haqli. Agar ko'rsatilgan muddatda MMT Qarz oluvchidan rad javobini olmasa, ushbu o'zgartirishlar Qarz oluvchi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi va bajarilishi shart.

12.3. Mijoz MMTdan uning xizmatlarini ilgari surish bilan bog'liq reklama materiallarini barcha aloqa vositalaridan foydalangan holda to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish yo'li bilan, jumladan pochta jo'natmalari, SMS-xabarlar, ovozli xabarlar, elektron xatlar va hokazolar orqali (lekin bular bilan cheklanmagan holda) olishga o'z roziligini bildiradi.

12.4. Nizolar kelib chiqqan taqdirda, bank yozuvlari mazkur Ommaviy oferta/Shartnoma bo'yicha har ikki tomonning majburiyatlarini tasdiqlovchi ustuvor dalil bo'lib xizmat qiladi.

12.5. Qarz oluvchi vafot etgan taqdirda, uning barcha huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda uning merosxo'rlariga o'tadi.

12.6. Shartnoma Mijoz tomonidan Kreditning yakka tartibdagi shartlari akseptlangan paytda amalda bo'lgan Ommaviy oferta shartlarida tuzilgan hisoblanadi va MMT hamda Mijoz o'z majburiyatlarini to'liq bajarguniga qadar kuchda bo'ladi.

12.7. Ommaviy oferta MMT saytida e'lon qilingan paytdan boshlab va e'lon qilingan muddat davomida haqiqiy hisoblanadi.

13. MMT MANZILI VA REKVIZITLARI

"AGAT CREDIT" AJ MMT

Manzil: Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 127a-uy

STIR: 304463924

"Trastbank" XATB AMALIYOT BOSHQARMASI

MFO: 00491

h/r: 20216000900697563001

tel.: (71) 205 80 20

e-mail: info@agatcredit.uz